

---

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA HARAKAT FAOLLIGINING TURLI SHAKLLARIDAN FOYDALANISH

---

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning harakat faolligining turli shakllaridan foydalanish masalasi tadqiq etilgan va bu borada xorij tajribasidan kelib chiqib, muammoni yoritishga harakat qilingan, mazkur tizimni yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish yo'lida turli taklif va tavsiyalar o'rta tashlangan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, yosh bolalar, harakat faolligi, jismoniy ko'nikmalar, mashqlar, harakatli o'yinlar.

**Аннотация.** В статье исследован вопрос использования разных форм двигательной деятельности детей в дошкольных образовательных учреждениях, в связи с этим на основе зарубежного опыта предпринята попытка внести ясность в проблему, а также выдвинуты различные предложения и рекомендации для того, чтобы дальнейшее совершенствование этой системы как важного звена интегрированной системы непрерывного образования.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, дети раннего возраста, двигательная деятельность, физические умения, упражнения, двигательные игры.

**Abstract.** The article examines the issue of using different forms of motor activity of children in preschool educational institutions; in this regard, on the basis of foreign experience, an attempt was made to clarify the problem, and various proposals and recommendations were put forward in order to further improve this system as an important link in an integrated system continuing education.

**Key words:** preschool education, young children, motor activity, physical skills, exercises, motor games.

**Kirish.** Maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish maqsadida tadqiqotlar yaratish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Kelajagimiz bo'lgan bolalarning sog'ligini mustahkamlash va jismoniy jihatdan to'liq rivojlantirish uchun harakat faolligining turli shakllaridan foydalaniladi. Qo'yilayotgan vazifaga bog'liq holda bolalarning yoshidagi o'ziga xosliklar va boshqa shartlar bolalar faoliyatining shakllari sifatida aniqlanadi. Masalan, yilning issiq vaqtida ko'pincha bolalarga turli sport o'yinlarning elementlarini, shu bilan birga velosiped va samokatda sayr qilish kabilardan foydalanish tavsiya etiladi. Qishda esa o'yinlar MTM sport zalida o'tkaziladi. Ba'zan qor yoqqanda qorbo'ron o'ynash mumkin.

"Ilk qadam" Davlat dasturida ham bolaning jismoniy rivojlanishiiga katta ahamiyat qaratilgan, shu bilan birga bolaning kompetensiyalari bola organizmi rivojining sohalarini belgilashda birinchi o'rinda "jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi"ga e'tibor qaratiladi[2, 21]. Shunday ekan, o'quv rejasida qo'yilgan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini sonini haftasiga 5 kunga ko'paytirish lozim. Jismoniy mashqlar, toza havoda jismoniy mashg'ulotlar, sport o'yinlari elementlari va mashqlar, sayrda jismoniy mashg'ulotlar, harakatli o'yinlar va mashqlar, jismoniy mashg'ulotlar (sport zali yoki toza havoda) va bolani jismoniy jihatdan sog'lom qilishga qaratilgan harakatli o'yinlar va mashqlar sonini ko'paytirish kerak.

Xorij tajribasi fikrimizni isbotlashga yordam beradi. Masalan, Bolgariyada maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash bo'yicha davlat dasturi mavjud. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya - sport bayramlarini tashkil etish va o'tkazish, suzish mashg'ulotlari, chiniqtirishga katta e'tibor qaratilgan.

Buyuk Britaniyada ta'lim bolaning individualligini, uning turli xil faoliyat turlarini o'zlashtirishdagi mustaqilligini rivojlantirishga qaratilgan. Buyuk Britaniya bino ichida "bolalar bog'chasi" juda xilma-xil jihozlar va materiallarga ega, jumladan, suvli vanna, unda suzuvchi o'yinchoqlar va suv tegirmonlari kabi maxsus "suv o'yinchoqlari" mavjud; quruq va ho'l qum qutilari qum va bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga hissa qo'shadigan ko'plab boshqa materiallar.

Buyuk Britaniyada maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya darslarida asosiy mashg'ulotlari gimnastika, raqs va ochiq o'yinlardir.

Xitoyda jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Maktabga tayyorgarlik jarayonida jismoniy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: optimal jismoniy rivojlanishga ko'maklashish; intizom kabi ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish, adolat, mas'uliyat, halollik, hamkorlik; asosiy vosita ko'nikmalarini va xavfsizlik qoidalari tushunchasini rivojlantirish; sportga qiziqish va muhabbatni shakllantirish. Bolalar bog'chasi o'quvchilarining jismoniy faoliyatining asosiy turlari - ochiq o'yinlar, gimnastika, raqs, yugurish, sakrash, uloqtirishdan iborat [10].

Germaniyada bolalar bog'chalarida rejalashtirilgan va yaxshi jihozlangan markazlar - rol o'ynash, syujet, rejissyorlik o'yinlari, loyihalash va eksperimentlar uchun xonalar bo'lishi taxmin qilinmoqda. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari uchun zal ajratilgan. Jismoniy tarbiya darslarida ko'chma o'yinlar, gimnastika, yugurish, sakrash, uloqtirish, ko'pincha suv o'yinlari va suzish darslari dasturga kiritilgan. Bolalar bog'chalaridan birida tajriba sifatida darslar joriy etilgan.

Amerikalik mutaxassislar maktabgacha yoshdagi jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi bolaning barkamol rivojlanishiga yordam berishdir, deb hisoblashadi. Jismoniy tarbiya maktabgacha yoshdagi bolalarning psixomotor, aqliy va hissiy rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak. Qo'shma Shtatlardagi maktabgacha jismoniy tarbiya dasturining asosiy jihatlari psixomotor ko'nikmalarni shakllantirish, ochiq o'yinlar, tayoq, raqs, jismoniy tayyorgarlik, suv o'yinlaridan iborat.

Finlyandiyada, 1984 yil tavsiyalariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun jismoniy tarbiya dasturi gimnastika, musiqa mashqlari, ochiq va sport o'yinlari, chang'i, konkida uchish, suzish bo'yicha darslar, dam olish uchun orientiratsiya kabi turlarni o'z ichiga oladi.

Fransiyada kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash o'yin faoliyatini, sezgi organlarini va harakat qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Darslar jadvalida ko'p vaqt jismoniy tarbiya, musiqaga bag'ishlangan.

Yaponiyada jismoniy tarbiya dasturida bolalar bog'chalarida Ta'lim quyidagi jismoniy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi:

- 1) yurish, chopish, sakrash;
- 2) otish, surish, tortish, dumalash;
- 3) yugurish, sakrash, nishonga uloqtirish bo'yicha musobaqalar;
- 4) jamoaviy ochiq o'yinlar;
- 5) to'plar, arqonlar va boshqa qurilmalar bilan o'yinlar;
- 6) ritm.

Yaponiyada maktabgacha jismoniy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat: vosita va aqliy rivojlanish, shakllantirish tomon yaxshi niyat muhit va intizom [4,115].

Xorijiy davlatlar maktabgacha ta'lim tizimining tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'rsatilgan mamlakatlar maktabgacha ta'lim tizimida jismoniy tarbiyaga katta e'tibor qaratilgan. Shuning uchun mustaqil yurtimizda ham bolalar jismoniy tarbiyasining samaradorligini oshirish uchun MTMLar tarbiyachisining kunlik ish rejasiga jismoniy tarbiyaning turli shakllarini kiritish zarurligi yaqqol ko'rinmoqda. Va bu orqali bog'cha yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyaga qiziqishini ham oshirish mumkin bo'ladi. Haftalik reja barcha rivojlanish sohalari bo'yicha maqsadlarni belgilash, tegishli markazlarni tayyorlash, mashg'ulotlarni hafta mavzusiga mos ravishda taqsimlashga yo'naltirilgan. Hafta mavzusi barcha erkin faoliyat markazlari orqali o'tishi lozim. Haftalik rejada guruhdagi va sayr vaqtidagi didaktik va harakatli o'yinlar rejalashtiriladi<sup>5</sup>. Bolalar bilan olib boriladigan ishning mazmuni va izchilligi faoliyat turi (faol faoliyat/ passiv faoliyat; individual faoliyat/ kichik guruhda, katta guruhda; tarbiyachi rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat/ bola rahbarligi ostida o'tadigan faoliyat) va uni o'tkazish joyi (xona ichidagi faoliyat/ ko'chadagi faoliyat)ni hisobga olgan holda rejalashtirilishi kerak.

Haftalik reja xilma-xil va moslashuvchan bo'lishi lozim. Boshqacha aytganda, ob-havo o'zgarishi va bolaning qiziquvchanligini hisobga olgan holda, rejalashtirilayotgan faoliyat boshqasiga almashtirilishi yoki faollik vaqti biroz ko'proq yoxud kamroq vaqtga mo'ljallanishi mumkin. Masalan,

agar tarbiyachi bahorda gullagan boqqa borishni rejalashtirgan bo'lsa-yu, ob-havo juda yomg'irli bo'lsa, bu tadbirni xonada o'tkazishning imkoni bo'lgan boshqa tadbirga almashtirishi mumkin.[ 2,24].

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturi namunasi asosida \_\_\_\_- \_\_\_\_ yoshgacha bo'lgan bolalar bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari rejasi"da "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish" ga dushanba kuni, " To'g'ri usullar bilan yurishga, yugurishga o'rgatish"ga esa chorshanba kuni belgilangan. Bizningcha, jismoniy tarbiyasining samaradorligini oshirish, bolalarni yoshligidan sog'lom va baquvvat qilib tarbiyalash uchun rejaga o'zgartirish kiritish kerak bo'ladi. Chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha butunjahon konferensiyasi"dagi nutqida shunday deyiladi. " Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish, ularning o'qishi uchun munosib shart-sharoitlar yaratish orqali kelajakda yoshlarning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratyapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q" [1].

Rus olimi V.Frolov hafta davomida rejalashtirilgan jismoniy mashg'ulotlarga alohida e'tibor qaratadi. Shundan kelib chiqib, o'yinlar va jismoniy mashqlarni quyidagicha almashtirib foydalanish mumkin:

1.Dushanba – sport zali yoki toza havoda jismoniy mashg'ulotlar;(O'z joyingizni top o'yini)

| O'yinlar nomi              | Dastlabki holat                                                                       | Bajarish                                                                                                                                                                                                                                                                                          | Takrorlash |
|----------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| O'z joyingizni top o'yini  | Bolalar birin-ketin to'siqlarni engib o'tishadi                                       | Ular gimnastika skamey kasi bo'ylab o'tishadi, gardish (obrucho)rasidan o'tishadi va qaytishda skameyka orasidan "ilon shaklida" o'tkazishadi va o'z joyini egallaydi.                                                                                                                            | 3-4 marta  |
| "Darvozaga kiring" o'yini. | Qo'llarida to'p bo'lgan bolalar 3-4 ta qatorga saflanadilar va chiziq oldida turadi.. | Chiziqdan 3 m masofada, kublarning har bir ustuni qarshisida darvoza yotqizilgan. Bolalar birin-ketin to'pni darvozaga aylantiradilar. Har kim mashqni bajarib bo'lgach, darvozaga urilgan to'plar soni hisoblanadi, bu g'olib ustunni aniqlaydi Bolalar to'plarni olishadi va o'yin davom etadi. |            |

2.Seshanba – sport o'yinlari elementlari va mashqlar -ertalabki sayrda (haftaning qolgan kunlari kechki sayrda);

| O'yinlar nomi                             | Dastlabki holat                                                                                                                                                                                             | Bajarish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | Takrorlash |
|-------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| "Gardish sakrash" orqali estafeta poygasi | Barcha o'yinchilar ikkita jamoaga bo'lingan va bir vaqtning o'zida ustunlar bo'ylab joylashgan. Har bir ustun oldida 3 va 5 metr masofada ikkita gardish birin-ketin yotadi va to'p 7 metr masofada turadi. | Rahbarning ishorasi bilan har bir jamoaning birinchi o'yinchilari birinchi gardishga yuguradilar, uning oldida to'xtaydilar, uni ikki qo'li bilan olib, boshlari ustiga ko'taradilar, gardishni o'zlariga qo'yadilar; ikkinchi halqaga yugurib, uning markazida turing, uni qo'llari bilan oling,boshdan yuqoriga ko'tarilib,erga tushiriladi. Shundan so'ng, o'yinchilar to'p atrofida yugurib, o'z joylariga qaytadilar. Keyingi bola o'yinni davom ettiradi. Vazifani birinchi bo'lib bajargan jamoa g'alaba hisoblanadi. | 3-4 marta  |

3. Chorshanba - sayrda jismoniy mashg'ulotlar;

| O'yinlar nomi           | Dastlabki holat                                          | Bajarish                                                                                                                                                                                                                                                 | Takrorlash       |
|-------------------------|----------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------|
| <b>Yalmog'iz kampir</b> | Ohak sifatida oddiy chelak, supurgi sifatida ishlatiladi | Ishtirokchi bir oyog'i bilan chelakda turadi, ikkinchisi erda qoladi. Bir qo'li bilan chelakni tutqichidan, ikkinchi qo'lida shvabrani ushlab turadi. Bu holatda, butun masofani bosib o'tish va ohak va supurgini keyingi ishtirokchiga o'tkazish kerak | <b>3-4 marta</b> |

4. Payshanba -harakatli o'yinlar va mashqlar sayr vaqtida; ("Boshdan do'ppini olish" o'yini, "Quvlashmachoq" o'yini)

| O'yinlar nomi    | Dastlabki holat                                               | Bajarish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |
|------------------|---------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Tez poezd</b> | Bayroqlar har bir jamoadan 6-7 metr masofada joylashtiriladi. | "Mart!" buyrug'i bilan. tez qadam bilan birinchi o'yinchilar (yugurish taqiqlangan) o'z bayroqlari oldiga boradilar, ularni aylanib o'tadi lar va ustunlarga qaytadilar, u erda ikkinchi o'yinchilar ularga qo'shila di va ular birgalikda yana bir xil yo'lni qiladilar va hokazo. O'yinchilar bir-birlarini tirsak laridan ushlab, yurish paytida qo'llarini lokomotiv bog'lovchi tayog'i kabi harakatga keltiradilar. Old o'yinchi - lokomotiv - to'liq to'ldiruvchi bilan joyga qaytganda, u uzoq hushtak chalishi kerak. Stansiyaga birinchi kelgan jamoa g'alaba hisoblanadi. |

5. Juma – jismoniy mashg'ulotlar ( sport zali yoki toza havoda).

|                           |                                                                                                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |                                                               |
|---------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------|
| <b>To'p bilan pingvin</b> | Ikki jamoa bir vaqtning o'zida ustunlarga joylashadi. Ularning oldiga 10 qadam joyda bayroq qo'yishadi | Jamoalarning birinchi raqamlari voleybol to'pini oladi. Uni tizza lari orasiga olib, sakr ashda harakatlanib, ular bayroqqa shoshilishadi, uni o'ngga aylantirib, orqaga qaytishadi. To'plar ikkinchi o'yinchilarga, keyin uchinchisiga va hokazolarga uzatiladi. O'yinni birinchi bo'lib yakunlagan jamoa g'alaba hisoblanadi. Bolalar o'rgatilganda, o'yinni qiyinlashtirishi mumkin: har bir kishi ikki to'p bilan harakatlanishi kerak - biri tizzalari orasiga, ikkinchisi esa qo'llarida ushlab turishi kerak. | <b>2-3 marta</b>                                              |
| <b>BARGLAR</b>            | Orqa tarafingiz da yotib, qo'llar bo'sh                                                                | qorningizda ag'daring                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | <b>5-6 marta</b>                                              |
| <b>VELOSIPED</b>          | Orqa, qo'llar va oyoqlarda yotish                                                                      | Oyoqlarni tizzada egish va echib olish - "keling, velosipedda yuramiz"; oyoqla ringizni pastga tushiring.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            | <b>2-3 marta, nafas olish mashqlari bilan almash tiriladi</b> |

**Ertalabki mashqlarga kiritilgan mashqlar quyidagilar bo'lishi kerak.**

- Bolalarga tanish va ular tomonidan yaxshi o'rganilgan mashqlar.( tekislan, shamol daraxtlarni tebratadi,barglar)
- Tuzilishi sodda, muvofiqlashtirish oson mashqlar.(G'ozlar, qushlar, quyonchalar)
- Ular, albatta, qulay, oyoq kamarini shakllantirishga qaratilgan mashqlar. (tizza qaerda, keling sinaylik)
- Nafas olish mashqlarini, sakrashlarni o'z ichiga oladi mashqlar.(to'plar, biz qo'ziqorinlarni yig'amiz)
- Chaqqonlik, moslashuvchanlik, kuchni rivojlantirish bo'yicha mashqlar yoshga qarab asta-sekin kiritilishi kerak.( oyoqlar yuradi,velosiped)

Ertalabki mashqlar uchun qo'llanmalar faqat bolalar tomonidan yaxshi o'zlashtirilganlardan foydalaniladi.(qo'shningizni ko'rsating,sharik, oynada qo'shningizni ko'rsat)

Hafta davomida boshqa jismoniy mashg'ulotlar bilan almashtirish mumkin.Bundan tashqari har kuni harakatli o'yinlar o'tkazib turish kerakligini ham unutmashlik lozim.

**Jismoniy tarbiya, ertalabki mashqlar uchun mashqlar to'plamini tuzishda siz ma'lum mashqlar ketma-ketligiga rioya qilish kerak.**

- Orqa tomonni to'g'rilash va egilish bilan hatlash.
- Qo'llarning dumaloq va uchish harakatlari.
- Tananing oldinga, orqaga, yon tomonga egilishi va dumaloq harakatlar.
- Boshning egilishi va dumaloq harakatlari.
- O'tirgan va yotgan holatda oyoqlarni ko'tarish (yoki oyoqlari mahkamlangan holda ).
- Oyoqlarini silkitib (oldinga, orqaga, yon tomonga).
- Sakrashlar.
- Joyida yurish va yugurish.
- Jismoniy mashg'ulotlar bolaning yurak-tomir, nafas olish tizimi, muskul va boshqa muhim organlarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.Bunga mashg'ulotlarda harakatli o'yinlar, estafeta o'yinlari, sport mashqlari, yugurishning turli shakllari, umuman harakatga asoslangan mashqlardan foydalanish orqali erishiladi.

XULOSA Hozirgi davrda xar tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma'naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o'zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi. Maktabgacha ta'limning maqsadi tarbiyachi murabbiylarning o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, yosh avlodni har tomonlama rivojlangan etuk. shaxs qilib tarbiyalash uchun o'z ustida ishlashi, intilishi, izlanishi, ayollarni zamon talablari asosida tarbiyalash uchun tarbiyaning yangi usul va vositalaridan keng foydalana olish kabi tarbiyachilik mahoratini shakllantirishga qaratiladi. O'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta'lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta'minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta'lim-tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha ta'lim pedagogikasi fanining qoida va qonunlarini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan bo'lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Мирзиёев Ш.М. “Кичик ёшдаги болаларни тарбиялаш ва таълим бериш бўйича бутунжаҳон конференцияси”даги маъруза. “Янги Ўзбекистон”, 2022 йил, 16 ноябрь, № 234.
2. Илк кадам.”Мактабгача таълим муассасаларининг Давлат ўқув Дастури”.Тошкент.2018.
3. Нуриддинова М. М. Мактабгача таълим муассасаларда жисмоний ҳужжатлар мажмуи –Тошкент “Муҳаррир” нашриёти 2013.
4. Пащенко Л.Г.Организация физического воспитания в дошкольных образовательных учреждениях. Учебное пособие. Нижневарт.Изд-во Нижневарт. гос. ун-та, 2014. — 115 с.
- 5.Салимов F.M. Мактабгача та'лим муассасаларида ertalabki gimnastika mashg'ulotlarining o'rni “Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil qilishning

istiqbollari: muammo va echimlar” Xalqaro miqiyosdagi ilmiy amaliy-anjuman. [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz) 2022 yil, 28-29 aprel.

6. Салимов F.M.Sog'lom turmush tarzining asosiy omillari .Science and education scientific journal. issn 2181-0842 .volume 3, issue. 4april . 2022.

7.Салимов F.M.Мактабгача ёшдаги болаларнинг жисмоний имкониятларини ривожлантириш. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 8 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor ASI Factor = 1.7 -С.279-284 .

8.Салимов F.M.Мактабгача таълимда ўйин, тарбия ва ўргатиш усуллари. “Jismoniy madaniyat va sport: ta'lim dasturlarini takomillashtirish, muammolar va echimlar” mavzusidagi xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. 2023 yil. 1-2 may. 557 -бет.

9.Фролов В.Г. Физкультурные занятия, игры и упражнения на прогулке. Москва «Просвещение», 1986.

10. <http://www.mext.go.jp>.